

Yozuvchining O'ziga Xosligi

Bobir Ruziboyev Mirzakulovich¹

Anatatsiya: Mazkur maqolada Ijodkor individualligi, dunyoqarashi bugungi kun hikoyachiligida samarali ijod qilib kelayotgan yozuvchi Sobir O'narning "Vijdon", "Taruuz" hikoyalari misolida ochib berilgan. Badiiy asarlarda qalamkash mahorati, o'ziga xosligi asar saviyasiga ta'sir etishi mazkur hikoyalar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: Individuallik, yozuvchi uslubi, hikoyachilik, tuyg'u, yozuvchi mahorati, badiiylik, ruhiyat, tubanlashuv, tarvuz, mahorat.

Ijodkor yaratgan asarlar o'zining dunyoqarashi, xarakteri, kayfiyati, hislarining aksi sifatida baholanadi. Yaratilgan asarda yozuvchi uslubi, individualligi alohida o'ringa ega. Aks holda, asarlar bir xil va takroriy bo'lib qoladi. Tabiiyki, bu odamlarning asarlarga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Shu sababli ham yozuvchi uslubi masalasi alohida e'tiborga molik. Yozuvchining individualligi – uning o'ziga xosligidir. Hozirgi kun hikoyachiligida ushbu xususiyatlar qay tarzda namoyon bo'layotganligi masalasini adiblar ijodi misolida kuzatamiz. "Hikoya nihoyatda qisqaligi, voqealar rivojining intensivligi – jadalligi bilan boshqa janrlarga mansub asarlardan ajralib turadi. Shuning uchun ham hikoya qisqa jumalalarda keng ma'no berishni, so'zni tejab-tergab ishlatishni talab qiladi"[1, 154]. So'nggi davr hikoyachiligida o'z o'rniga ega bo'lgan adib Sobir O'nar inson tuyg'ularining nozik qirralari va taqdir, hayot atalmish olamning aksini o'z asarlariga mahorat bilan singdira olgan ijodkoridir. Uning asarlarida umuminsoniy masalalar bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Yaxshi bilamizki, har bir asarda bunday masalaning tor doirada qalamga olinishi odatiy holatdir. Lekin uning kitobxon qalbiga, ko'ngil torlariga o'tkazadigan ta'siri turlichadir. Bunda, albatta, yozuvchi mahorati muhim rol o'ynaydi. "Mahorat – yozuvchining o'zi bilan kitobxon orasidagi to'siqni olib tashlash qobiliyatidir" [2, 44]. Sobir O'narda, albatta, ushbu holatning guvohi bo'lamiz. Yozuvchining hikoyalari turli mavzularda yaratilgan bo'lsa-da, ularning hammasini hayotiy muammolar, o'ziga xos obrazlar olami birlashtirib turadi. Bular orqali ulkan mazmun namoyon bo'ladi.

S.O'nar hayot materiallarini badiiylik libosiga o'rab har tomonlama yetuk asar yaratadi. Uning asarlaridagi tasvirlar kitobxon kundalik hayotida kuzatgan, guvohi bo'lgan va bevosita ishtirok etgan voqealari asosida yaratilgan. Yozuvchi bevosita tasvirlariga keltirib o'tmaydi, balki insoniy tuyg'ular, ruhiy ziddiyatlar tasviriga munosabat bildiradi. "Badiiy adabiyot tushunchasining asosida, shubhasiz, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarning badiiy ifodasi turadi. Shu boisdan ham hech bir ijodkor yo'qki, o'z asarida buni chetlab o'tgan bo'lsin" [3, 40]. S.O'nar ijodida ham bu holatni kuzatish mumkin. Xususan, "Vijdon" nomli hikoyasida elning "vijdoni" bo'lgan kishilar xususida turli lavhalar keltiriladi. Insonning o'ziga, vijdoniga to'g'ri bo'lishi, unga xiyonat qilmasdan yashashi e'tirof etiladi. Hikoya G'aybar momo haqidagi tasvirlar bilan boshlangan: "G'aybar momoning asl ismi Xonsuluv bo'lib, el uning shashtidan, polvonligidan shu no bilan atashgan ekan. U xalqning boshini birlashtirgan, o'ziga xos xarakterdagi inson qiyofasida gavdalanadi: masalan, nevaralarini azonlab qichqirib uyg'otardi. Har biriga yumushlar buyurib, har yoqqa tarqatib yuborar, o'choqda choy qaynaguncha, qozonda sut pishguncha ular bir dunyo ishini bitirib kelar edi" [4, 4].

Qahramon ushbu tasvir orqali erta turishning xosiyatini o'z nevaralariga yoshligidan singdirib boradi. Yoki quyidagi tasvir orqali uning axloqiy fazilatlarini namoyon bo'ladi: "Mabodo kosada ovqat sarqit bo'lsa, o'zi non burdasini ikkiga yorib surtib kosani tozalab urib tashlardi. Choy yuqini, hatto shamani qoldirmas edi. Uvoldan qo'rq derdi". Isrofga yo'l qo'ymaslik, bor ne'matlarning qadriga yetish kabi jiddiy masalalar ushbu obrazning xarakterida o'z ifodasini topgan. Asar muallif tilidan hikoya qilinadi. Rivoyat usulida keltirilgan ushbu lavhani ijodkor hayotiy faktlarga tayangan holda sodda tilda bayon etadi. Hikoya qahramoni G'aybar ona ayol boshi bilan elga yetakchilik qiladi. U "gayir edi – yalqovlik, o'zi bo'larchilik, g'irromlik dushmani edi". Muallif tili bilan aytganda "vijdonli ayol edi". Ayniqsa, hikoyaning quyidagi o'rnida ushbu obrazning yorqin xarakteri ochilgan: "Aytaylik birgina qarindoshingga yoki qo'shningni yomonlikdan qaytarib qolsang, uni jaholat tuzog'idan qutqarib qolishing mumkin!" [4, 7]. Ma'lumki, sharq mentalitetiga ko'ra badiiy adabiyot insonlarga estetik zavq berishdan tashqari ma'naviy ozuqa va ta'lim-tarbiya ham berishi azaldan asarlar orqali aks etgan. Bunday holat inson ma'naviyatiga jiddiy e'tibor bergan ijodkor S.O'nar ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu hikoyada yana qator axloqiy-ma'naviy masalalar, xususan, Nonber otaning xalq farovonligi uchun kurashishi, qishloq oqsoqoli Keldivoy Qo'shmurodovning mahalladagi obodonchilik ishlariga qo'shgan hissasi, loqaydlik, mas'uliyat kabilarga ham to'xtalib o'tilgan. "Hikoya o'z tabiatiga ko'ra xarakterlarni eng mayda detallarigacha tasvirlashni talab etmaydi. Xarakterning shakllanishi ham roman va povestdagidek batafsil ko'rsatilmaydi.

Aksincha, hikoyada shakllangan xarakter va tiplarning ma'lum bir momentlarigina yoritiladi" [5, 173]. Hayotda do'stlik, mehr-oqibat kabi tuyg'ulardan o'z manfaati yo'lida voz kechadigan, uni zarracha qadrlamaydigan insonlar ko'plab uchraydi. Bu kabi holatlarning bir qismi S.O'narning "Taruuz" hikoyasida o'z aksini topgan. Ushbu hikoyaning bosh qahramonlari Omondavlat va Xudoyqul ismli do'stlardir. Xudoyqul shaharda yashaydigan, o'ziga to'q inson sifatida

¹ Bulung'ur tuman 69-umumiy o'rta ta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, GulDU tadqiqotchisi

tasvirlanadi. Tugun Omondavlatning bola-chaqasi bilan do'sti Xudoyqulnikiga kelishidan boshlanadi. Do'stining kelishini Xudoyqul noxush kayfiyatda qabul qiladi. Uning nazarida Omondavlat pul so'rab kelmoqda. "So'ng er-xotin ikkov mehmonlarni kutib olish rejasini tuzishdi. Undoq desa bundoq, bundoq desa undoq edi, deya chora gap topib beramiz, xullas, pul yo'qligiga ishontiramiz deb, kelishib olishdi". Keyingi tasvirlar izchillikda davom etadi. "Mehmonlar kechin-ola yetib kelishdi. Omondavlat xotini, bir chaqaloq qizi, to'rt-besh yoshlardagi burni oqqan o'g'li bilan keldi. Do'stining uyida yo'qligini ko'rib chandon xafa bo'ldi, go'yo u hech qayoqqa qimiramay kutishi shartday, u qo'ltig'ida ikkita tarvuz, xotini bir qo'lida chaqalog'i, bir qo'lida kattakon korzinkasifat sumkasi bor edi. Sumkada turshak, yong'oq, mayiz, qishloqning tegirmon unida yopilgan talay non va patirlar, Xudoyqulning yosh qizchasiga atab tikilgan kiyim-bachkilar. Omondavlat tarvuzlarni oshxonaga qo'ydi, so'ng yuz-qo'lini yuvib zalga – mehmon kutiladigan joyga o'tdi" [4, 7]. Asar davomida Xudoyqul do'stiga yomon munosabatda bo'ladi. Omondavlatning xatti-harakatlaridan ochiq-oydin g'ashlanadi, jirkanadi.

Hatto, mezbonligini, yonidagi esa bolaligidan birga katta bo'lgan do'sti ekanligini unitadi. Do'sti bilan so'zlashar-so'zlashmas unga sal jahlini bildirib, biroz sur ohangda shunday deydi: "Jon jo'ra, oyog'ingniyam, noskingdiyam yuvib kel vannaga borib". Uning bu so'zidan mehmon hijolat bo'ladi-yu, yana uning so'zlarini yaqin insonning beg'araz so'zlari sifatida qabul qiladi: "begona bo'lsam betimga aytarmidi". Hikoya davomida Xudoyqulning ma'naviy qiyofasi yanada tubanlashib boradi. Xudoyqul dabdurdustdan pul topish ancha mushkul bo'lib ketgani, birovga bergan pulini ham, molini ham qaytarib olish o'limdan og'irligini so'zlay ketdi. Bu ishoralar, albatta, sodda, ko'nglida kiri yo'q Omondavlatga yetib bormaydi. Omondavlat bolalik chog'larini eslashni, do'sti bilan gurunglashishni chindan xohlaydi. Yigirma uch yil avvalgi sinfdosh bo'lib yurgan kunlarini, maza-bemaza qilgan ishlarini eslab miriqib o'tirgisi keladi. Sinfdoshlarining ahvolidan so'zlaydi. Lekin do'stining ensasi qotadi. Yo pulni, yo do'stlarini mensimaganday bo'ladi. "Ichlaringda joni bori kim o'zi?" deb kulmish qildi. Do'sti xafa bo'layotganini ko'rib "xo'p-xo'p, boshqa bunday demayman, men seni masxara qilmadim-ku", dedi va tag'in kuldi". Uning yana kulishi dilidagi va tilidagi gaplarning uyg'unligini tasdiqlaydi. Muallif buni ochiq aytmaydi, qahramonning harakati orqali holatni ifodalaydi. Xudoyqulning "tag'in kulishida" bir zamonlar qadrdon bo'lgan do'stining, sinfdoshining, hatto, o'zi voyaga yetgan tuproqning ustidan kulish, uni mensimaslik tuyg'ulari bor edi. Shu o'rinda u o'zining, o'zligining ustidan kulganini anglab yetmaydi. Do'stining bu so'zlaridan so'ng Omondavlat o'zining begona odamga aylanib bo'lganini his eta boshladi. Asarda uning holati quyidagicha beriladi:

"Mehmon qizardi, bo'zardi, xijolat bo'ldi. Televizorga qarab o'tirib tosh qotdi, lekin qulog'iga shapaloq tekkan kabi qizib turar edi". Dasturxonga bo'lka non va moshxo'rda qo'yiladi. Mehmonning gapi bilan qishloqdan olib kelingan bir qop-qora non va patir dasturxonga qo'yiladi. Hikoya o'rtasiga kelib esa voqealar rivoji teskari tus oladi. Mezbonning uyiga biznes hamkorlari kelishi bilan vaziyat o'zgaradi. Xudoyqulning qanday yashashi namoyon bo'ladi. "Stolga birpasda g'alati taomlar kela boshladi. Yeryong'oq, parvarda, konfet, turshak singari "kambag'al"ning bezaklari hash-pash deguncha yig'ishtirildi. Kolbasa, qazi, pishloq, tovuq go'shtidan tortib boshmaldoning boshiday keluvchi og'zilar lang ochilgan pistalar ham keldi. "Qishloqi" mehmon xushyorroq tortib o'tirardi". Tasvirdan ko'rinadiki, Xudoyqul juda kambag'al emas, balki ancha o'ziga to'q. Bunday vaziyatdan Xudoyqul umuman uyalmaydi, hatto xayoliga ham keltirmaydi.

Omondavlat esa shunday vaziyatda ham do'stini o'ylaydi. Uning "nozik mehmon"lariga o'zi olib kelgan tarvuzdan ham qo'yishini qistaydi. Lekin uning so'zlari yana yerda qoldiriladi. U o'zini noqulay seza boshlaydi. Lekin oxirigacha chidashga qaror qiladi. Xudoyqulning jo'ralari ko'p pul xususida gaplashishidan uning ham maqtangisi keladi. Shu payt quyidagi voqea yuz beradi: "Ittifoqo yupqa, nozik likopchalarda tarvuz keldi. Omondavlatning biroz kayfi oshgani bo'lsmi, tarvuzga ko'zi tushgani zamon ichi yorishib ketdi. Hay-hay yosh boladek sevindi. Picha mubolag'asi bilan aytganda, dasturxonning egasiday sezdi o'zini". Qahramon qishloqda yetishtirilgan tarvuzlar xususida so'z ochadi. Bu orqali uning tuyg'ularini sezish mumkin. Ozigina vaqt o'tgach, tarvuzga uzaladi. "Yeb bo'lib po'chog'ini likopchaga qo'yar chog' tag'in dong qotdi, bu boshqa tarvuz! Qorasidan olib kelgandi, bunisi yashil-chipor". Qahramonning kayfiyati tushib ketadi. O'zining keyingi harakatlarini boshqara olmay qoladi. Achinarli tomoni, mezbon ertalab ham qilmishidan uyalmaydi, mehmonlarning ketishiga ham befarq qaraydi. Uning ma'naviy tubanlashuvi quyidagi parchada avj nuqtaga ko'tariladi:

"Ko'cha boshida ahlaxona bor ekan. Omondavlat e'tibor bermadi-yu, xotini bir turtgach, cho'chiganday ishora qilgan tomonga qaradip[: temir yashiklar yonida xuddi kecha o'zi ko'tarib kelgan tarvuzlarga o'xshashikki tarvuz turibdi". Shu o'rinda muallif qahramonning ruhiyatiga e'tibor qaratadi. Uning o'y-hayollari orqali nafaqat butun asar davomida harakatlangan ikki shaxs: Omondavlat va Xudoyqulning, balki jamiyatdagi ko'pgina insonlarning ma'naviy dunyosi, qiyofasini akslantiradi: "Ey, inson! Kechagina men qatori eding-ku. Qishloqda, tezak orasidan chiqding-ku. Nima qiliq axir bu? Senga milyon so'mlik sovg'a opkelishga qurbim yetmaydi. Ko'ngil bu, do'st, ko'ngil! Haqorat ham shunchalik bo'lar".

Hikoya mehmonlarning ketishi bilan yakunlanadi. Bu hikoya orqali muallif inson ruhiyatidagi, ma'naviy olamidagi qarashlarni turli tasvirlar natijasida o'zgarishi va bu o'zgarish salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkinligi g'oyasini ilgari suradi.

Bu o'rinda inson o'zligi masalasining uning ma'naviyatida tutgan o'rni muhimligiga ham e'tibor qaratadi. Hikoyadagi har bir tasvir badiiy "yuk" olgan. Xususan, hikoyadagi predmet detallarning ahamiyati juda katta. Tarvuz detalining sarlavha darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Tarvuz dastlab, Omondavlat va Xudoyqulning qishloqda birga o'tkazgan bolaligining ramzi bo'lsa, asarning keying o'rnlari turmush kamchiliklarining, inson ojizligining aksi bo'lib kelgan. Shu bilan birga Omondavlat nazdida inson qadr-qimmatini belgilagan. Inson ruhiyatidagi tadrijiylik, ruhiy tug'yon shu detall vositasida aks ettirilgan. Bu hikoya insonning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qiladi.

S.O'narning "Tarvuz" hikoyasida maishiy hayot lavhalarini bayon etish orqali insonning tubanlashuvini, haqiqiy do'stlik, insoniylikdan ko'ra pul, mol, dunyoni afzal ko'ruvchi Xudoyqul obrazining xatti-harakati, ruhiyati orqali ochib beradi. "Hikoyada tarvuz – psixologik ramz vositasini o'tagan. Omondavlat do'stining uyiga tarvuz ko'tarib kelishi, Xudoyqulning

puldor do'stlari kelganda tarvuz qo'yilishi, ahlatxonaga tarvuz chiqarib tashlanishi barchasi uzviy ravishda bog'lanib, hikoyada muhim badiiy g'oyani ifodalashga xizmat etgan. Nazarimizda, Xudoyqul aslida o'zining manfur, tashqi jihatdan yaltiroq, ammo ichi qaltiroq qiyofasi bilan tarvuzning tashqi holatini esga soladi. Tarvuz silliq, yaltiroq, olachipor bo'lganidek, Xudoyqulning tabiati ham jamiyatda har qanday ishni pul bilan silliq bitkazadigan, hislari to'mtoq, dag'al insonning ramziy timsoli" [6, 7]. Yuqorida keltirilgan hikoyadagi rang-barang inson qiyofasi ijodkorning o'ziga xosligini, uslubini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N.Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 1979-yil.
2. Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar. (Jahon adiblari adabiyot haqida. O.Sharafiddinov tarjimai). – T.,2010-yil.
3. O'ljaboyev U. A.Qahhor saboqlari. Guliston.2013-yil.
4. Sobir O'nar. To'rt hikoya. www.google.uz.
5. N.Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.,1979-yil.
6. Umarali Normatov. "Kichik janrlarning katta imkoniyatlari"(taqriz). – T., 2015-yil.
7. Komilova, N. A. Comparative Analysis of "Gender" Concept and Issues of Gender Field in English and Uzbek Languages. *International Journal of Social Science and Human Research*, 5(6), 2191-2194.
8. Komilova Nilufar Abdilkadimovna. (2021). Comparative And Linguocultural Analysis Of The Concept "Gender" In Uzbek And English Languages. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 112–117. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-19>
9. Nilufar A. Komilova. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF LEXICAL VERBALIZERS OF THE CONCEPT "GENDER" IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 103–106. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/584>
10. Rasulova M.I. Fundamentals of lexical categorization in linguistics. - Tashkent: Fan, 2005. – 268p.
11. Shodieva, G. N. Q., & Rakhmonova, M. A. Q. (2021). INFORMATION PERIOD CHANGE OF PEOPLE'S OUTLOOK, NEGATIVE AND POSITIVE IMPACT OF THE INTERNET. *Scientific progress*, 2(8), 563-566.
12. Do'smatov, D., & qizi Shodiyeva, G. N. (2022, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH TAMOYILLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 770-774).
13. Shodiyeva, G. N. Q. (2022). MATN GRAMMATIKASINING ASOSIY MUAMMOLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 1173-1176.
14. Kizi, S. G. N., & Tolibovna, S. A. (2022). Semantic features and new methods of non-standard English. *Ta'lim fidoyilari*, 24(17), 2-272.
15. Najmiddinova, R. Z., & Najmiddinova, R. K. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(05), 19-21.
16. Usmanova, D., & kizi Shodieva, G. N. ISSUES OF CLASSIFICATION OF WORD CATAGORIES IN THE UZBEK.
17. Qizi, S. G. N. (2022). ISSUES OF CLASSIFICATION OF WORD CATAGORIES IN THE UZBEK. *Science and innovation*, 1(B3), 812-816.